



## 5 TASHABBUS – KITOB BILAN



*Isroilova Mahbubaxon Axmatovna*  
*Andijon shahar pedagogika kolleji*  
*Maxsus fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Prezidentimiz rahbarligida 2019 yil 19 martda "YOshlar bilan ishlashni samarali tashkil qilishda madaniyat, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muxim tashabbus ilgari surilgan edi. Bu borada Andijon viloyatidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bog'cha tarbiyalanuvchilar uchun olib borilayotgan kitob targ'iboti, kitobni sevish, u insonning eng yaqin do'sti ekanligi haqidagi amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Vatan, kutubxona, kitob, targ'ibot, yosh avlod, do'stlik, ezigulik, baxt.

### KIRISH

Mashhur fransuz faylasufi Franc Bikon "Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchilarning kemalaridir" deb bejiz aytmagan. Zero, kitob aqlni sharqlaydigan, tafakkur bulog'ini ochadigan va uni ilxomlandiradigan buyuk mo'jizadir. Insoniyat paydo bo'lib tiki dunyoni bilishga, o'zini-o'zi bilishga qiziqqan, intilgan. Shu nuqtai nazardan kitobning paydobo'lishini ham insonning paydo bo'lishiga tenglashtirsa bo'lalabadi. Dastlab odamzod o'z hissiyotlarini yerga, toshlarga, daraxt pustlog'iga va keyinchalik terilarga bitgan. Manbalarda keltirishisha qog'ozning paydo bo'lishida qadimda Nil daryosi soxillarida o'sgan papirus osimligining roli katta bo'lgan. U qamish va bambukka o'qshagan osimlik bo'lib, mahalliy aholi undan qayiq, savatlar yasagan. Uning poyasidan uzin-uzin tasmalar qirqib olinib, yonma-yon joylashtirilgan va yog'och tuqmoq material xosil bo'lgan. Kutubxonalar xalqning, millatning kozgusi desak mubolaqa bo'lmaydi. Kutubxonalarni ozida ulkan manaviy boyliklarni mujassam etgan, kitobxon oquvchilarning oquvga quchimcha komak beradigan bosh vaqtini tashkil etishga moljallangan manaviy-marifiy maskan dep etirof etish mumkin.

Mamlakatimiz taraqqiyotida yurt, millat, taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'nan barkamol, intellektual salohiyati muxim o'rin tutadi. Zero davlatimiz rahbari SH.Mirziyoev takidlab o'tganidek "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarni mustahkam rivojlanishga rahna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga,



axloqiy tarbiya, yoshlarni bilim olish, kamolga etkazishga e'tibor qaratish xar qachongidan ham muhimdir!"

SHu nuqtayi nazardan Prezidentimiz rahbarligida 2019 yil 19 martda "YOshlar bilan ishlashni samarali tashkil qilishda madaniyat, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbus bo'yicha joylarda ayniqsa ta'lim tizimida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa 4-tashabbus aholi ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha mavzuga doir juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Andijon viloyati bu borada peshqadamlikni qo'ldan bermay kelayotganligi barchaga ma'lum. Ayniqsa ta'lim sohasidagi nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablarida, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida ham 4-Tashabbus, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maksadida, viloyatimizning turli maskanlarida joylashgan Axborot - kutubxona markazlariga bog'cha tarbiyalanuvchilarni sayohatlarga olib chiqish an'naga aylandi. Viloyatimizdagi 100 yillik tarixga ega bo'lgan Zaxriddin Muhammad Bobur nomidagi Viloyat Axborot-kutubxona markazi bugungi kunda yoshidan qat'iy nazar barcha kitobxonlariga sitqi dildan xizmat qilib keloqda. 2021 yilda mukammal ta'mirlangan 3 qavvatli jahon kutubxonalaridan kam bo'lmagan, barcha qulayliklarga ega bo'lgan kutubxona bugungi kunda 850 mingdan ziyod kitob fondiga ega bo'lib, bu albatta kutubxonamizning katta boyligi hisoblanadi. Mana shunday tarixga ega hamda bugungi kunda yosh avlodni yanada etuk va barkamol qilib tarbiyalashda ularga yanada ko'proq bilim va ko'nikmalar berish maqsadida Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ham ziyo maskaniga tashrif buyurishi kutubxona hodimlarini quvontirishi shak - shubhasiz. Andijon shahar pedagogika kollejidagi 64 – MTT ga qarashli 6 -7 yoshli qisqa muddatli tarbiyalanuvchilari bog'cha tarbiyachilari bo'lgan ustozlari Mashxuraxon Ibragimova hamda Mohimir Mamatxonovalar boshchiligida

**“ 5 Tashabbus – kitob bilan “** shiori ostida Kutubxonaga sayohat tashrifi orqali mashg'ulot tadbirlari o'tkazib bormoqdalar.



Kutubxonada bolajonlar uchun alohida mashg'ulot tadbiri o'tkazish uchun shart-sharoitlar ajratilganligi bolajonlarda katta taa'surot qoldirmoqda. Ayniqsa, ularda Yangi avlod darsliklari, Alifbo, O'zbek qaxramonlari aks etgan ertak kitoblar, rangli qog'ozlarda tayyorlagan 1-sinf o'quvchilari uchun chiroyli rangli kitoblar, buyuk alloma va adiblarimiz suratlari bolajonlarni diqqatini o'ziga tortdi. Ayniqsa, yangi yaratilgan alifbo darslik kitobi nafaqat bilim berish balki kasbga yo'naltirish g'oyasini sindirishga mo'ljallanganligi haqida AKM bosh kutubxonachisi Umidaxon Qodirova tomonidan bolalarcha tushuncha berib, ularni har biriga ushbu bolalar bo'limidagi kitoblar bilan tanishib chiqishini taklif qildilar. Bog'cha tarbiyalanuvchilar go'yoki o'zlarini xazinalar oroliga tushib qolgandek xis qildilar.

Ushbu bolalar xonasini tashkil qilishimizdan maqsad, - ular uchun joylashgan barcha jihozlar ayniqsa, kitoblar ertak qaxramonlari bilan birga yonma-yon joylashganligi, bola qo'liga olgan kitob qanday mavzudagi kitob va qaysi ertak qaxromonlariga taa'luqli ekanligini anglab olishi qiyin emasligiga alahida e'tibor qaratilgan. Bolajonlar qo'liga olgan kitoblarini varaqlar ekan, ular orqali vatanga muxabbat, ota-onaga xurmat, chin do'st, halolik va poklik, kelajakda barkamol inson bo'lib tarbiyalanishlari lozim ekanini yana bir bor xis qilishlari nazarda tutilgan, deydi Axborot kutubxona markazi direktori Gulnoraxon Ismoilova.

Bolajonlarni ushbu ziyo maskaniga olib kelishdan asosiy maqsad ham shu edi aslida. Chunki Prezidentimiz SH.Mirziyoev takidlaganidek, bugungi kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni ta'lim va tarbiyasiga barchamiz ma'sulmiz!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.M.A. Isroilovanning "Hayotning xar lahzasi sinov", oddiy haqiqatlar, tarbiya mezonlari mavzudagi kitobi.

2.Andijon – 2018 yil. "Hayot" nashriyoti.